



INSON ERKINLIGI G'OYASINING SHARQ VA G'ARB TAFAKKURIDAGI TALQINI (ABDULLA QODIRIY VA SOMERSET MAUGHAM ASARLARI MISOLIDA)

Alimardonova Gulsevar Sirojiddinovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Email: alimardonovagulsevar10@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17377776>

Anatatsiya: Ushbu maqolada Sharq va G'arb adabiyotidagi inson erkinligi masalasi Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani, hamda Somerset Maughamning "The Moon and Sixpence" asari asosida tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor har ikki muallifning erkinlik haqidagi falsafiy va ijtimoiy qarashlariga, shuningdek, ularning qahramonlari orqali insoniyat qadri, shaxsiy tanlov va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatning yoritilishiga qaratiladi. Yuqoridagi asarlarning talili natijasida mavzu batafsil va tushunarli uslubda misollar bilan yoritiladi. Bu asarlarning qiyosiy tahlili asosida inson erkinligi tushunchasining G'arb va Sharq tafakkuridagi talqini, ularning farqlari hamda birlashtiruvchi xususiyatlari va asl mohiyati ochib beriladi

Kalit so'zlar: erkinlik, tafakkur, Sharq, G'arb, shaxs, individualism, majburiyat va mas'uliyat, ma'naviy erkinlik.

Inson erkinligi tushunchasi asrlar davomida eng asosiy va dolzarb mavzu bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Ayniqsa, adabiyot va san'at sohasi har doim bunga jiddiy e'tibor qaratib kelgan. Adabiyot inson ruhining eng nozik qatlamlarini yorituvchi san'atdir. XX asr adabiyotida inson erkinligi g'oyasi markaziy o'rin tutgan masalalardan biri hisoblangan. Ma'lum omillar sabab bu borada turli qarashlar va yondashuvlar shakllangan. Bunday tafovutlarni Sharq va G'arb tafakkurida ham keltirishimiz mumkin.

Sharq mumtoz tafakkurida erkinlik ko'proq axloqiy, ma'naviy, va diniy qadriyatlar bilan uyg'un holda talqin qilinadi, ya'ni asosiy e'tibor jamiyatdagi majburiyat va mas'uliyatlarga qaratiladi. G'arb falsafasida esa bu tushuncha shaxsiy huquqlar va erkinliklarga, jumladan, fikrlash, so'zlash va o'z-o'zini ifodalash erkinligiga ahamiyat qaratiladi, bu esa jamiyatda individualizmga urg'u berishni anglatadi. Shu nuqtayi nazardan, Abdulla Qodiriy va Somerset Maugham asarlarining qiyosiy tahlili Sharq va G'arb adabiyotidagi erkinlik konsepsiyasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asarida inson erkinligi masalasi

"O'tgan kunlar" romani o'zbek adabiyotida shaxs va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatni tasvirlashda burilish yasay olgan asar hisoblanadi. Asar bosh qahramoni bo'lmish Otabek obrazi milliy uyg'onish davri ziyolisininig ramzi sifatida insoniy orzu, muhabbat va vijdon oldidagi erkin tanlov timsolidir. Bu asarda o'tgan davrlarda mavjud bo'lgan feodal jamiyatning zolim qonunlari, urf-odatlar va ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurash ifodasida insoniy erkinlik o'z aksini topgan. Abdulla Qodiriy uchun erkinlik- bu, avvalo, ma'naviy mas'uliyatdir. U shaxsning jamiyatdan uzilmagan, ammo uni isloh qilishga intiluvchi faolligini ulug'laydi. Asar qahramonlari so'zlashuvi va arakatlarida bu maqsad yaqqol ayon bo'ladi:" Shamayda ekanman, qanotim bo'lsa, Vatanga uchsam, to'ppa-to'g'ri xon o'rdasiga tushsam-da, o'risning ukumat qonunlarini birma-bir arz qilsam, xon ham arzimni tinglasa-da, barcha elga yorlig' yozib o'risning idora tartibini dasturilamal etishka buyursa, men ham bir

oy ichida o'z elimni o'risniki bilan bir qatorda ko'rsam". Bundan shuni tushunib yetishimiz mumkinki, Otabek Sharq mentalitetiga sodiq, ammo G'arbcha islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi obrazdir. Bu obraz orqali Qodiriy Sharq qadriyatlarini bilan G'arb yangiliklari o'rtasidagi uyg'unlikni yaratishga intiladi. Bu intilish orqali u jamiyat hayotida yangiliklar yaratish va mavjud sharoitni yaxshilashga urinadi.

Somerset Maughamning "The Moon and Sixpence" asarida erkinlik g'oyasi

Somerset Maugham-XX asr ingliz adabiyotining falsafiy ruhdagi yozuvchilaridan biridir. Uning asarlarida insonning ruhiy o'sishi, o'zligini anglashi va erkinlik sari intilishi asosiy g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Maugham asarida asosiy qahramon Charlz Striklend hayoti orqali G'arb tafakkuridagi erkinlik-shaxsiy orzu, ijodiy mustaqillik va jamiyat qoidalariga bo'ysunmaslik sifati ifodalanadi. Maugham shaxsiy erkinlikning asl narxini ijtimoiy ajralish va yolg'izlik ekanini ko'rsatib beradi: "Each one of us is alone in the world. He is shut in a tower of brass, and can communicate with his fellows only by signs, and the signs have no common value, so that their sense is vague and uncertain. We seek pitifully to convey to others the treasures of our heart, but they have not the power to accept them, and so we go lonely, side by side but not together, unable to know our fellows and unknown by them"-W. Somerset Maugham, *The Moon and Sixpence*, Chapter 42. (Har birimiz dunyoda yolg'izmiz. Biz misr minorasida qamalganmiz va faqat belgilar orqali boshqlar bilan aloqa o'rnatamiz, ammo bu belgilar umumiy qiymatga ega emas, shuning uchun ularning ma'nos noma'lum va noaniq. Biz yuragimizdagi boylklarni boshqalarga yetkazishga intilamiz, lekin ular buni qabul qilish qudratiga ega emas, shuning uchun biz yolg'iz, yonma-yon, lekin birga emas, bir-birimizni bilishga qodir emasmiz va bilmasdan yashaymiz.) Bu misoldan shu anglashiladiki, yozuvchi uchun erkinlik tashqi emas, balki ichki holatdir. Uning asarida inson jamiyat me'yorlari va shaxsiy fikrlar o'rtasida qaror qabul qiladi. Shu bilan Maugham G'arb tafakkuridagi individualizm g'oyasini yorqin aks ettiradi.

Sharq va G'arb tafakkurida erkinlikning falsafiy talqini

Sharq tafakkurida erkinlik ko'proq Alloh irodasiga mos hayot kechirish, ruhiy osoyishtalik topish orqali anglanadi. G'arb tafakkurida esa bu tushuncha, asosan, inson markazida, uning individualligi va ijobiy kuchi orqali belgilanadi. Shu bois, Qodiriy erkinlikni ijtimoiy uyg'onish bilan bog'lasa, Maugham uni shaxsning o'zini anglab yetishi bilan izohlaydi, ya'ni Qodiriy uchun inson-islohotlarning markazi hisoblansa, Maugham asarlarida inson o'z hayotini boshqarish uchun kurashadi.

G'arb va Sharq tafakkurining qiyosiy tahlili

Abdulla Qodiriy va Somerset Maugham asarlari bir qaraganda mutlaqo turli madaniy muhitda yozilgandek tuyuladi. Ammo ularni birlashtiruvchi jihat-bu inson tabiatiga chuqur e'tibor va ma'naviy uyg'onish masalasidir. Qodiriy o'z asarlarida insonni ijtimoiy muhitning mahsuli sifatida tasvirlaydi, Maugham esa insonni o'z taqdirining yaratuvchisi deb biladi. Biroq har ikkisi ham insonni ichki dunyo bilan bog'liq ruhiy mavjudot sifatida ko'rsatadi.

Har ikki muallif erkinlikni o'z davrining muammolari orqali batafsil yoritgan. Shu sababli, Qodiriy erkinlikka erishish yo'li sifatida jamiyat islohotini ko'rsa, Maugham uni jamiyatdan chekinish, uzoqlashish orqali ifodalab beradi: "Otabekning yuragida g'urur va izzat bor edi, u har bir haqiqatni yuzingga aytmasdan turolmasdi. Lekin bu yuz ochiqlik unga ko'p dard keltirdi"- "He had no wish to communicate with anyone; he wanted to be alone, to

paint as he chose, to live as he pleased" (U hech kim bilan muloqat qilishni istamas edi; u yolg'iz bo'lishni, xohlaganicha rasm chizishni va xohlaganidek yashashni istardi). Bundan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz mumkinki, Otabek erkin fikrli inson sifatida jamiyatning buzuq an'analariga qarshi chiqadi. Striklend esa jamiyat bilan aloqaning ma'nosizligini anglab yetadi, uning erkinligi ma'naviydir jamiyat fikridan, qoidalaridan ozod.

Sharq tafakkurida inson jamiyat bilan uyg'unlikda, birdamlikda yashashi kearak bo'lsa, G'arb tafakkurida inson o'z erkinligini, shaxsiy huquqlarini himoya qilishi lozim. Shu tarzda, Qodiriy va Maugham qahramonlari turlicha yo'l tutgan bo'lsa-da, maqsad bir -haqiqatni anglash va ruhiy ozodlikka erishish.

Abdulla Qodiriy va Somerset Maugham asarlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, Sharq va G'arb tafakkuri bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini boyita oladi. Ular ijodidagi erkinlik g'oyasi bir-birini to'ldiruvchi ikki falsafiy yo'nalishni ifodalaydi. Qodiriy ijtimoiy uyg'onishni, Maugham esa ruhiy uyg'onishni ilgari suradi, ya'ni Qodiriy erkinlikni milliy va ma'naviy erkinlikni anglash bilan izohlasa, Maugham esa uni shaxsiy yaratuvchanlik va individual iroda sifatida talqin etadi.

Bu jihatdan inson erkinligi va uni anglay olish qobiliyati ham Sharqda, ham G'arbda bir xil darajada dolzarbdir. Faqat ifoda uslubi va badiiy ko'lam farq qiladi:

-Qodiriy ko'proq ijtimoiy realizmga tayanadi;

-Maugham esa psixologik introspeksiya(ichki tahlil)dan foydalanadi.

Har ikkisi ham insonni markazga qo'yadi- biri milliy jamiyat doirasida, ikkinchisi global tafakkur kontekstida. Har ikki yo'nalish insoniyatning o'z mohiyatini izlash yo'lidagi doimiy kurashni ifodalaydi. Natijada, ular asarlarida inson tabiatining ummuminsoniy qirralarini ochib bera olishdi.

Demak, inson qayerda yashamasin, u o'z orzulari, iztiroblari va baxt sari intilishi bilan bir butun mavjudotdir. Shuni ham e'tirof etib o'tish joizki, inson yashayotgan ma'lum hudud va sharoitdan kelib chiqqan holda orzular, iztiroblar va baxt sari intilishlar turli xil bo'lishi mumkin, lekin asl maqsad bu jamiyatda o'zligini va erkinligini yo'qotmagan holda yashay olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Abdug'aniyevich Karimov "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch". Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2019.
3. Somerset Maugham "The Moon and Sixpence" London: Heinemann, 1919.
4. A. Saidov "Sharq tafakkuri va zamonaviylik" Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2021
5. N. Abdullayeva "Abdulla Qodiriy ijodida shaxs va jamiyat konsepsiyasi". Filologiya masalalari jurnali, 2022.
6. J. Brown "Freedom and Individuality in Western Literature" Cambridge University Press, 2017.
7. N. Karimov "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi" Toshkent: Universitet nashriyoti, 2004.
8. A. Khan "Comparative Literature: East and West", Oxford university Press, 2016.